

**RAQAMLI AKTIVLAR VA MULKKA EGALIK QILISHNING YANGI
SHAKLLARINI HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISH**

Xudaibergenova Dilnoza Ulug'bek qizi

*Toshkent Davlat Yuridika universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi
yo 'nalishi talabasi*

dilush826@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan yangi mulk turlari — token, NFT, blokcheyn asosidagi obyektlar — ustidan egalik masalasi yoritiladi. Muallif xalqaro tajribani (MiCA, SEC) tahlil qilgan holda, O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud bo'shliqlarni ochib beradi va raqamli egalikni tan olish zarurati asoslanadi. Tadqiqotda mulk huquqining raqamli shaklini fuqarolik qonunchiligiga integratsiya qilish, egalikni himoya qilishning zamonaviy yondashuvlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli egalik, raqamli aktivlar, mulk huquqi, NFT, blokcheyn, MiCA, kriptoaktivlar, huquqiy islohot, O'zbekiston, raqamli iqtisodiyot

TRANSFORMATION OF PROPERTY RIGHTS IN THE DIGITAL AGE: LEGAL FOUNDATIONS OF DIGITAL OWNERSHIP

Khudaibergenova Dilnoza Ulugbek qizi

Student of the Mass Media Law program at Tashkent State University of Law

dilush826@gmail.com

Annotation: This article explores how digital technologies are transforming the nature of property by introducing new forms of ownership over intangible assets such as NFTs, tokens, and blockchain-based objects. It analyzes the challenges of legally recognizing digital ownership, examines global regulatory approaches including the EU's MiCA and the U.S. SEC framework, and assesses gaps in www.tadqiqotlar.uz

20-to'plam 2-son Iyun 2025

Uzbekistan's legal system. The study highlights the urgent need to adapt national laws to the realities of the digital economy and ensure legal protection for digital property holders.

Keywords:*digital ownership, digital assets, property rights, NFT, blockchain, MiCA, crypto regulation, legal reform, Uzbekistan, digital economy*

Raqamli asrda, hatto ma'lumotlar haqida gap ketganda ham, egalik huquqini aniqlash asosiy masala bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda mulkka egalik qilish masalasi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarish, ayniqsa, nomoddiy shakldagi raqamli aktivlar – tokenlar, NFT, metavers obyektlari, kriptovalyutalar va sun'iy intellekt orqali yaratilgan raqamli mahsulotlar misolida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Endilikda "mulk" tushunchasi nafaqat moddiy aktivlarni, balki internet muhitida yaratiladigan va almashiladigan obyektlarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonda ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli Farmoni bilan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi¹.

Zamonaviy raqamlashtirish davrida aktivlar tushunchasi an'anaviy mulkiy obyektlar chegarasidan chiqib, virtual muhitdagi raqamli shakllarni ham o'z ichiga ola boshladi. Shunday aktivlar bugungi huquqiy adabiyotda ko'proq "**raqamli aktivlar**" (digital assets) atamasi bilan ifodalanmoqda. Ular jamiyatning iqtisodiy munosabatlarida ham, huquqiy tizimda ham yangi munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli aktivlarni mulk huquqining obyekti sifatida tan olish, ularning huquqiy tabiatini va ularga nisbatan egalikni aniqlash masalalari global yuridik muhokamaning markaziga aylanmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF–6079-son, 05.10.2020-yil – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Raqamli aktivlar deganda, asosan internet yoki boshqa raqamli platformalar orqali mavjud bo‘lgan, egasiga muayyan iqtisodiy qiymat keltiruvchi raqamli obyektlar tushuniladi. Bular orasida eng ko‘p uchraydiganlari — kriptovalyutalar (masalan, Bitcoin, Ethereum), NFT (noyob tokenlar), o‘yinlardagi raqamli resurslar, metaverse (virtual olam) obyektlari, raqamli san’at asarlari va hatto sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentlar hisoblanadi. Ular endilikda bozorda sotilmoqda, ayriboshlanmoqda, investitsiya obyekti sifatida qaralmoqda va eng muhimi — ular ustidan egalik huquqi uchun kurashlar boshlangan.

Shunga qaramay, “raqamli aktiv” atamasining yagona, aniq huquqiy ta’rifi hali ham mavjud emas. Masalan, OECD bu atamani “raqamli shaklda mavjud bo‘lib, qiymatga ega va uzatilishi mumkin bo‘lgan aktivlar” deb ta’riflaydi². FATF esa, ularni “virtual aktivlar” sifatida belgilaydi va asosiy e’tiborni ularning moliyaviy oqimdagি roli va xavf-xatarlariga qaratadi³. Har ikkala yondashuvda ham asosiy jihat – bunday aktivlar faqat raqamli shaklda mavjud bo‘lishi va ular orqali iqtisodiy manfaat olish mumkinligidir. Bu esa ularni, oddiy raqamli fayldan farqli o‘laroq, haqiqiy huquqiy va iqtisodiy obyektga aylantiradi.

Yuqorilardan kelib chiqib tabiiyki har bir insonda savol tug‘iladi: bunday aktivlar ustidan mulk huquqi qanday shakllanadi va u qanday himoya qilinadi? Chunki bu aktivlar moddiy emas, ya’ni qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydi, real makonda emas, balki virtual fazoda mavjud. Lekin bu ularning qiymatga ega emasligini anglatmaydi. Bugun bir NFT (masalan, raqamli rasm yoki gif) yuz minglab dollarga sotilishi, odamlar ularni investitsiya vositasi sifatida ko‘rishi — raqamli aktivlarning real iqtisodiy obyektdan kam emasligini isbotlaydi. Shu bois ularni mulk huquqi doirasida tan olish zaruratga aylangan.

² OECD. (2021). *The Tokenisation of Assets and Potential Implications*. Retrieved from <https://www.oecd.org/finance/tokenisation-of-assets.htm>

³ FATF. (2023). *Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and VASPs*. Retrieved from <https://www.fatf-gafi.org>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Biroq an'anaviy huquqiy tizimlar bu holatga hali to'la tayyor emas. Masalan, klassik mulk huquqi ko'proq moddiy narsalarni qamrab oladi: yer, bino, mashina va boshqalarni ammo raqamlı obyekt esa moddiy shaklga ega emas, u faqat algoritm, kod, blokcheyndagi yozuv sifatida mavjud. Ustiga ustak, bu aktivlar ko'pincha biror milliy yurisdiksiyaga ham tegishli emas – u global tarmoqda mavjud. Bu esa egalikni aniqlash va uni huquqiy jihatdan tan olishda murakkabliklar tug'diradi. Aytaylik, siz NFT xarid qildingiz. Sizda blokcheynda yozilgan raqamlı guvohnoma bor – bu sizning egasiz degani. Lekin agar boshqa bir kishi sizning NFT'ni ko'chirib olib, boshqa platformaga joylashtirsa yoki undan daromad qilsa, siz u bilan qanday huquqiy munosabatga kirishasiz? Qaysi davlat sudiga murojaat qilasiz? Va eng muhim – sizning egalik huquqingiz qay asosda himoya qilinadi? Aynan shu savollar butun dunyo huquq tizimlarini yangi konseptual yechimlar izlashga majbur qilmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi 2023-yilda qabul qilgan **MiCA (Markets in Crypto Assets)** reglamenti orqali raqamlı aktivlar uchun maxsus huquqiy asos yaratishga urindi⁴. Bu hujjatda tokenlar, virtual valyutalar va boshqa raqamlı obyektlar muomalasi, ularni yaratish, egalik qilish va almashish jarayonlari qonuniy doiraga kiritilgan. Xuddi shunday, AQShda ham SEC (Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya) va CFTC (Tovar fyuchers komissiyasi) raqamlı aktivlarning investitsion jihatini tartibga solmoqda⁵. Bu yondashuvlar orqali dunyo huquqshunoslari bir narsani tan olmoqda: **raqamlı aktivlar real iqtisodiy kuchga ega, shuning uchun ularni huquqiy himoya qilish zarur.**

Shu sababli, raqamlı aktivlarning huquqiy tabiat bo'yicha ikkita muhim xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, ular an'anaviy mulk huquqi doirasidan tashqariga chiqib, yangi — raqamlı mulk konsepsiyasini shakllantiryapti. Ikkinchidan, ular ustidan egalikni faqat huquqiy hujjatlar bilan emas, balki texnologik vositalar —

⁴ European Parliament. *Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA)*. Official Journal of the EU.2023.

⁵ U.S. Securities and Exchange Commission (SEC). *Crypto Asset Securities Framework*. Retrieved from <https://www.sec.gov> 2023.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

blokcheyn, platforma identifikatsiyasi, raqamli imzolar orqali ham isbotlash mumkin. Bu esa egalik va huquqiy himoya tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Natijada, nafaqat O‘zbekiston, balki barcha davlatlar raqamli aktivlarni alohida mulk shakli sifatida qonun hujjatlarida mustahkamlab, ular ustidan egalik huquqini kafolatlovchi yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur bo‘ladi. Buning uchun esa xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish, fuqarolik qonunchiligiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va texnologik vositalarni huquqiy tizimga uyg‘unlashtirish muhim sanaladi.

Bu borada xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun muhim o‘rnak bo‘la oladi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2023-yilda qabul qilingan Markets in Crypto Assets (MiCA) reglamenti raqamli aktivlarni tan olish va tartibga solishda ilk marta yagona yondashuvni taqdim etdi. Mazkur reglament kriptoaktivlarni, NFTlar va stabelkoinlarni moliyaviy aktiv sifatida e’tirof etib, ularni chiqarish, saqlash, savdoga qo‘yish va egalik qilish mexanizmlarini huquqiy asosga joylashtirdi. Muhimi, ushbu hujjat egalik huquqining texnologik isboti — blokcheyn yozuvlari, token egaligi, raqamli identifikatsiya kabi zamonaviy elementlarni ham tan oladi. Natijada, Yevropa fuqarolari endi o‘z raqamli aktivlari ustidan an’anaviy mulk huquqi kabi ishonchli egalikni rasmiy yo‘l bilan tasdiqlashi mumkin⁶.

AQShda esa raqamli aktivlar bo‘yicha yondashuv moliyaviy va xavfsizlik masalalariga qaratilgan. Bu yerda kriptoaktivlar ko‘pincha qimmatli qog‘oz sifatida baholanadi va egalik huquqi “Howey testi” asosida aniqlanadi⁷. Shuningdek, Kongress tomonidan ishlab chiqilgan “Digital Commodities Consumer Protection Act” qonun loyihasida blokcheyn yozuvlariga asoslangan egalikni qonuniy tan olish, investorlarni himoya qilish, va kriptoaktivlar ustidan markazlashtirilgan regulyatsiyani kuchaytirish taklif qilinmoqda⁸.

⁶ European Parliament and Council. *Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA)*. Official Journal of the European Union. 2023.

⁷ U.S. Securities and Exchange Commission (SEC). *Framework for “Investment Contract” Analysis of Digital Assets*. 2021.

⁸ U.S. Congress. *Digital Commodities Consumer Protection Act of 2022*, S.4760, 117th Congress. 2022.

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси

Osiyo mamlakatlari esa texnologik va huquqiy yondashuvni sintez qilish orqali ilg‘or tajribani shakllantirmoqda. Xususan, Janubiy Koreyada NFTlar intellektual mulk sifatida e’tirof etilib, mualliflik huquqi bilan himoya qilinmoqda. NFT’lar bo‘yicha egalik huquqi nafaqat ijodiy, balki tijorat jihatdan ham huquqiy asosda ta’milanmoqda⁹. Janubiy Koreyada tokenlar va raqamli aktivlar ustidan egalik shaxsiy identifikatsiyaga bog‘langan va blokcheyn yozuvi bilan birga sudda isbotlanadigan dalil sifatida e’tirof etilgan.

Singapurda esa “Payment Services Act” orqali tokenlar, kriptovalyutalar va raqamli aktivlar faoliyati maxsus litsenziya asosida yuritiladi. Bu qonun raqamli aktivlar ustidan tranzaksiyalarni ro‘yxatga olish, egalikni davlat darajasida tan olish va tartibga solish imkonini beradi¹⁰. Ushbu qonun asosida raqamli egalik texnologik vosita emas, balki huquqiy munosabatlar obyekti sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekistonda esa raqamli mulkka egalik huquqini huquqiy jihatdan tan olish hali bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Amaldagi **Fuqarolik kodeksda** na “raqamli aktiv”, na “NFT”, na “blokcheyn yozuvi” huquqiy kategoriya sifatida mavjud emas¹¹. Bunday bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun, birinchidan, **Fuqarolik kodeksiga “raqamli aktiv” tushunchasini** kiritish zarur. Raqamli aktivlar alohida mulk obyekti sifatida e’tirof etilib, ularga nisbatan mulkiy huquqlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash lozim. Ikkinchidan, NFTlar, metaverse obyektlari va sun’iy intellekt mahsulotlarini **intellektual mulk qonunchiligiga kiritish** muhim. Bu esa ularga nisbatan mulkiy va no’mulkiy huquqlarni belgilashni ta’minlaydi. Uchinchi zarur chora — **blokkcheyn asosida qayd etilgan yozuvlar va tranzaksiyalarni huquqiy dalil sifatida tan olishdir**¹². Bundan tashqari, xalqaro tajribaga tayangan holda O‘zbekistonda “Raqamli aktivlar to‘g‘risida” alohida qonun qabul qilish zarur. Bu qonunda raqamli mulk turlari, egalikni aniqlash, texnologik isbot vositalari, shaxsiy identifikatsiya, vositachilarining (kriptobirjalar, platformalar) huquqiy maqomi,

⁹ Korea Copyright Commission.*NFTs and Copyright: Legal Guidelines*. Seoul, Republic of Korea.2022.

¹⁰ Monetary Authority of Singapore. (2020). *Payment Services Act 2019 (PSA)*.

<https://www.mas.gov.sg>

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1997.<https://www.lex.uz/docs/-111189>

¹² OECD. (2021). *The Tokenisation of Assets and Potential Implications*. OECD Publishing.

<https://www.oecd.org/finance/tokenisation-of-assets.htm>

www.tadqiqotlar.uz

davlat reyestri, sud muhofazasi va transchegaraviy nizolarni hal qilish mexanizmlari belgilanishi kerak¹³.

Xulosa qilib aytganda, raqamli aktivlar bugungi kunda real iqtisodiy qadriyatga ega bo‘lgan yangi mulk shakliga aylanmoqda. Shu bois, ularni qonuniy tan olish va huquqiy jihatdan himoya qilish davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Raqamli mulkka egalik — bu faqat texnologik imkoniyat emas, balki fuqarolarning mulkiy huquqlarini ta’minlash, ularning raqamli makondagi erkinligini himoya qilish vositasidir. O‘zbekiston ham bu borada xalqaro standartlarga tayangan holda, raqamli egalikni qonunchilikda mustahkamlashi va uni sud-huquqiy yo‘l bilan kafolatlay olishi zarur. Chunki raqamli mulk — bu bugunning boyligi, ertangi huquqiy tartibotning negizidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF–6079-son, 2020-yil 5-oktabr – “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/docs/5030109>
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.1997-yil 1-mart. <https://lex.uz/docs/111189>
3. European Parliament and Council. Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on Markets in Crypto-Assets (MiCA). *Official Journal of the European Union*, 2023.
4. U.S. Congress. *Digital Commodities Consumer Protection Act of 2022*, S.4760, 117th Congress. Washington, D.C.
5. Monetary Authority of Singapore. *Payment Services Act 2019*. Singapore, 2020. <https://www.mas.gov.sg>
6. Yakubov A.N. *Raqamli huquq: kontseptsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: Yuridik nashriyot, 2021.
7. Tillabaev M.A., G‘afurov A.B. *Fuqarolik huquqi: umumiy qism*. – Toshkent: TDYuU, 2019.

¹³ Yakubov A.N.“Raqamli aktivlar huquqiy maqomi va ularni fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solish masalalari”. *Yuridik fanlar*, №2, 34–41-betlar.2022.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- 8.Saidov A.X. *O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi: amaliy va nazariy muammolar.* – Toshkent: “Adolat”, 2020.
- 9.Yakubov A.N. “Raqamli aktivlar huquqiy maqomi va ularni fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solish masalalari.” *Yuridik fanlar*, 2022, №2, 34–41-betlar.
- 10.Raxmonov Sh.N. “Raqamli huquq va intellektual mulk: O'zbekiston qonunchiligidagi yangi yondashuvlar.” *Huquq va jamiyat ilmiy jurnali*, 2022, №1, 15–23-betlar.
- 11.“Yuridik kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining zamonaviy mexanizmlari: milliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 27-oktabr.
- 12.OECD. (2021). *The Tokenisation of Assets and Potential Implications*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/finance/tokenisation-of-assets.htm>
- 13.FATF. (2023). *Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and VASPs*. <https://www.fatf-gafi.org>
- 14.U.S. Securities and Exchange Commission (SEC). (2023). *Crypto Asset Securities Framework*. <https://www.sec.gov>
- 15.Korea Copyright Commission. (2022). *NFTs and Copyright: Legal Guidelines*. Seoul, Republic of Korea.
- 16.European Parliament. *Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA)*. Official Journal of the EU.2023.
17. U.S. Securities and Exchange Commission (SEC). *Crypto Asset Securities Framework*. Retrieved from <https://www.sec.gov> 2023.
- 18..European Parliament and Council. (2023). *Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA)*. Official Journal of the European Union.